
TOSHLOQ TUMANIDA IPAK QURTI TARQATILMOQDA

Ma'lumki, har yili aprel, may, iyun oylarida yurtimizda ipak(pilla) urug'ini olib kelish, pilla qurti boqish hamda tayyor mahsulotlarni pillachilik korxonalariga yetkazib berish borasida keng ko'lamli ishlar olib boriladi.

Joriy yil pilla mavsumida Toshloq tumanida 3 ming 405 quti ipak qurti jonlantirilib, 204 tonna pilla xomashyosi yetishtirish rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda fermer xo'jaliklari va kasanachilar bilan ipak qurti parvarishlash uchun kontraktatsiya shartnomalari tuzildi. Bunda "Temir daftar" da ro'yxatga olingan oilalar hamda "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" ga kiritilgan fuqarolarga alohida e'tibor qaratildi.

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektorlar rahbarlari "Zarkent" MMTP hududidagi inkubatoriyada mas'ullar bilan uchrashib, ipak qurti tarqatilishi jarayonlarini ko'zdan kechirdilar. Hozirgi kunda "Zarkent" MMTP hududi urug'chilik elita yaratishga ixtisoslashgan bo'lib, 600 quti ipak qurti parvarishlanadi.

Bugungi kunda 14 dona inkubatoriya mavjud bo'lib, ular orqali fermer xo'jaliklari hamda qurt boquvchi kasanachilarga urug' tarqatish borasidagi ishlar boshlab yuborilgan.

2024-04-12 11:29:31